

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



«JASDIRLAYMAN»  
Navoiy davlat pedagogika instituti  
ektroli M.B.Kalonov

Ro'yxatga olindi: 2024/AkadQ 2105  
2024 yil " 9 " 09

**(T.F.) AKADEMIK QALAMTASVIR**

**O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi: 100 000 – Ta'lim  
Ta'lim sohasi: 110 000 – Ta'lim  
Ta'lim yo'nalishi: 70110501 – Tasviriy san'at

**Navoiy– 2024**

<b>Fan/modul kodi</b> AkadQ2105	<b>O'quv yili</b> 2024-2025	<b>Semestr</b> 1	<b>Kreditlar</b> 5	
<b>Fan/modul turi</b> Tanlov	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek/rus		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	(T.F.) Akademik qalamtasvir	60	90	150

**2.**

**I. Fanning mazmuni**

**Fanning maqsadi** – Akademik qalamtasvir - barcha tasviriy san'at turlarining; rangtasvir, dekorativ amaliy san'at, grafika, xaykaltaroshlikning asosi sifatida bo'lajak pedagog rassomlarga borliqni ko'rib-kuzatib to'g'ri tasvirlash, borliqni idrok etish, qo'l, ong va sezgi organlarini shakllantirish hamda bo'lajak rassom-pedagoglarni tasviriy san'at asoslariga o'rgatishni maqsad qilib qo'yadi.

**Fanning asosiy vazifasi** – boshqa kasbiy fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanib, u talabalarga amaliy mashg'ulotlar ozrqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassom-pedagoglarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhim o'rin tutadi.

Magistrlarning akademik qalamtasvirni yanada chuqur o'zlashtirishlarida o'qitishning ilg'or va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarini tadbiiq qilish muhimdir. Fani o'zlashtirishda darslik, o'quv uslubi qo'llanmalar va ma'ruza matnlari, elektron adabiyotlar va tasvirlar, elektron materiallar, tasviriy san'at atributlaridan to'la foydalaniladi. Etuk o'zbek va xorijiy tasviriy san'at san'at usta rassomlarining jahon miqyosida tan olingan san'at asarlari namunalari, hamda metodik jihatdan mukammal reproduktiv ishlari; zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar tashkil etish; postanovkalarni tashkil etishda safit (yoritgichlar)lardan foydalanish. Buyuk san'at ustalari va ularning ijod etish jarayonlarini aks ettirishga bag'ishlangan kino lentalar, chop etilgan namuna va elektron versiyalaridan keng foydalaniladi.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I-Modul: Akademik qalamtasvir fani to'g'risida umumiy ma'lumotlar fanining maqsadi va vazifalari. Akademik qalamtasvir fanining rivojlanish tarixi.**

**1-mavzu.** Akademik qalamtasvir fani to'g'risida umumiy ma'lumotlar.

**2-mavzu.** Akademik usulda tasviriy san'at asarlarini yaratish.

**3-mavzu.** Yalang'och erkak kishi gavdasini tasvirlash (ixtiyoriy, odatiy tik turgan holati).

**4-mavzu.** Odam tanasini inter'erda atrofidagi buyumlar bilan birgalikda akademik qalamtasvirida tasvirlash yo'llari.

**5-mavzu.** Naturaning psixologik o'ziga xos xususiyatlari. Portret tasvirida qo'llar ifodaviyligidan samarali foydalanish.

**II-modul: Keksa erkak yoki ayol portretlarining akademik qalamtasvirini ishlash usullaridan.**

**6-mavzu.** Keksa erkak yoki ayol portretining akademik qalamtasviri.

**7-mavzu.** Qiyofachining yarim gavdasini qo'li bilan akademik qalamtasviri.

**8-mavzu.** Jahon va markaziy Osiyo mamlakatlarining tasviriy san'atga oid manbaalarini o'rganish

**9-mavzu.** Chiziladigan yuzaga to'g'ri joylashtirish, soya yorug'larini aniqlash, anatomik tahlili, konstruktiv tuzilishi. Perspektiva qonun-qoidalariga asoslangan holda tasvir aniqligiga erishish yo'llari.

**10-mavzu.** Akademik qalamtasvirni o'rganish usullariga doir turli qarashlar.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

#### **Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Usta rassom va pedagoglarning akademik qalamtasvir bo'yicha yaratgan asarlarini tahlil qilish.

2. Tasviriy san'atning asosiy qonun va qoidalarini namoyish etuvchi plakatlarni o'rganish.

3. Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish.

4. Tabiat qo'ynida chiziqli va havo perspektivasini qo'llagan holda qalamchizgi va qoramalar ishlash.

5. Rassomlar ustaxonalari, ko'rgazma zallari va galereyalarga tashrif buyurish, hamda ulardan nusxalar olish.

6. Shakllarni chiziqli konstruktiv qurilishini tasvirlashga oid mashqlar bajarish (odam qomatini chuqur anatomik o'rganish).

7. Konstruktiv anatomik tuzilish asoslarini hisobga olgan holda ayol qiyofachining yuz tuzilishining xarakterli xususiyatlarini etiborga olgan xolda boshning elka bilan birlashuvini aniqlab tasvirlash.

8. Akademik qalamtasvir va uning maqsad-vazifalarini mohiyatini anglash.

9. Akademik qalamtasvirining nazariy asoslarini o'rganish.

10. Akademik qalamtasvirda tasvirlashning asosiy qonun-qoidalarini o'rganish.

11. Akademik qalamtasvirda tasvir vositalari.

12. Akademik qalamtasvir ishlash metodlari tarixidan.

13. Geometrik shakllar akademik qalamtasviri har xil shaklli ikki geometrik jismning chiziqli konstruktiv rasmini chizish (kub, shar, piramida, silindr).

14. Kub va silindr qo'yilmalarini akademik qalamtasviri.

15. Girih milliy naqsh rozetkasining akademik qalamtasviri (panjara, nilufar naqshi)

16. Antik davr gips vaza va sharning akademik qalamtasviri.

17. Islimi shaklli milliy naqsh rozetkasi, mis qumg'on va sopol piyolaning akademik qalamtasviri.

18. Me'morlik bo'lagi rasmini akademik qalamtasviri.

19. Bosh suyagi bo'laklarining akademik qalamtasviri.

20. Tirik odam boshi rasmini akademik qalamtasviri.

#### **IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.**

Magistr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;

- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;

- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;

- talabani o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;

- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;

- masofaviy ta'lim.

#### **Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Realistik akademik qalamtasvir haqidagi adabiyotlar bilan tanishish; Meva va sabzavotlarni grizayl usulida ishlash bo'yicha mashqlar bajarish.

2. Tabiat qo'ynida chiziqli va havo perspektivasini qo'llagan holda qalamchizgi va qoramalar ishlash.

3. Tasviriy san'atning asosiy qonun-qoidalarini hamda ishlash usullarini namoyish etuvchi reproduksiyalar va video tasmalarni ko'rib, ularni amalda qo'llashni o'rganish; maxsus adabiyotlar bo'yicha fan bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash.

4. Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish; Cheklangan bo'yoqlarda meva va uy-ro'zg'or buyumlaridan sodda natyurmortlar ishlash faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlariga ma'lumotlar to'plash.

5. Mustaqil uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan sodda natyurmotni tuzish va akvarelda turli texnologiyalarda tasvirlashni o'rganishga oid mashqlar bajarish.

6. Murakkab kompozitsiyali voqeaband asarlarni yaratish jarayonida qiyofachilardan foydalanish.

7. Bir necha kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya holatlarni ifoda etuvchi qo'yilmalarning etyudlarini tasvirlash.

8. Bir necha kishilarni inter'erda atrof muhit manzarasi bilan birga tasvirlash.

9. Perspektiva qonun-qoidalariga asoslangan holda tasvir aniqligiga erishish yo'llari.

10. Ochiq havoda o'tirgan odam qiyofasini akademik qalamtasvirida tasvirlash.

#### **4. VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**

**Magistr bilishi kerak:**

- Akademik qalamtasvirning san'atda tutgan o'rni;

- Akademik qalamtasvir mashg'ulotlarini o'tishda tasviriy san'at asoslari,

	<p>kompozitsiya qonuniyatlari, chiziqli, havo, perspektivalari, ufq tekisligi siluet, konstruktsiya, shtrix, masshtab, nisbatlar, materiallar xususiyatlari, yorug'-soya qonuniyatlari, turli tasvirlash vositalaridan foydalanishni <b><i>bilishi kerak</i></b>,</p> <p>- talaba qalamtasvir darslarini rejalashtirish: natyurmort, portret, odamning turli holatlaridan postanovkalar tashkil etish, tasvirlash texnologiyalari, o'quvchilarga qalamtasvir mashg'ulotlarini tashkil etishda san'at asarlarini tahlil eta olish, yaxshi o'zlashtiruvchi va boshlovchi o'quvchilar bilan individual darslar olib borish, o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish <b><i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak</i></b>.</p> <p>talaba tasviriy san'at tarixi va nazariyasi, kompozitsiya qonuniyatlari va plastik anatomiya, portret xarakteristikasi va psixologik echim, o'quv va akademik qalamtasvir ishlash metodlari va inetodologik asoslari, qalamtasvir texnologiyasi, oddiy geometrik shaklardan boshlab. insonning to'liq qomatini tasvirlay olish, qalamtasvir kompozitsiyasi, tasviriy san'at asarlarini yaratishda qalamtasviming ahamiyati. qalam va turli tasvirlash vositalarida kompozitsiyalar tuzish <b><i>malakahtriga ega bo'lishi kerak</i></b>.</p>
5.	<p><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• interfaol keys-stadilar; ( mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• amaliy mashg'ulotlar</li> <li>• taqdimotlarni qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> <li>• ijodiy ishlar yaratish</li> </ul>
6.	<p><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>

7.

### **IX. Asosiy adabiyotlar:**

1. B.Baymetov "Qalamtasvir" Darslik. – T.: Musiqa nashriyoti, 2016
2. Sh.U.Bobonazarov "Qalamtasvir" O'quv qo'llanma Navoiy, 2021
3. R. Hasanov. Maktabda tasviriy san'at o'qitish metodikasi. – T.: "Fan", 2004.
4. B.Baymetov "Qalamtasvir" Darslik. – T.: Musiqa nashriyoti, 2006

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

5. B.Boymetov "Akademik qalamtasvir" Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, 1997.
6. Tojiev B. "Qalamtasvir asoslarini o'rganish". – Toshkent, 2011.
7. O. Samadov. Tasviriy san'at dars larida odam boshini tasvirlash. – T.: "Fan", 2005.
8. Xodjaboyev A.R., Xusanov I.A. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. – T.: "Fan va texnologiya", 2007, - 192 b.
9. N. Oydinov. Rassom – o'qituvchilar tayyorlash muammolari. – T.: "O'qituvchi" - "Ziyo Noshir", 1997.

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni**

1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-son farmoni.

### **Axborot manbalari**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
3. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
4. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
5. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
6. [tdpu - INTRANET. Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)
7. [www.nbgf.intal.uz](http://www.nbgf.intal.uz)

8.	Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024 yil " 6 " 09 19 dagi qarori bilan tasdiqlangan
9.	<b>Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:</b> Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrası v.b.dots. p.f.f.d. (PhD) <u>Shovdirov</u> S.A.Shovdirov
10.	<b>Taqrizchilar:</b> <b>O.D.Raximov</b> – NDPL, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrası dotsenti <b>S.S.Abdullayev</b> – BuxDU "Tasviriy san'at va amaliy san'at kafedrası" dotsenti

Kafedra mudiri  t.f.n. A.H.Abdullayev

№ TS/M- 1-öd